



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 128 sahifa,  
2-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|  |    |
|--|----|
| Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi:<br>milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili .....                   | 16 |
| <a href="#">Salim Doniyorov</a>  |    |
| Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil<br>kompetensiyasini shakllantirish .....                     | 21 |
| <a href="#">Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna</a>  |    |
| Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va<br>multimedia vositalaridan foydalanish.....                          | 26 |
| <a href="#">Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich</a>   |    |
| Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....   | 29 |
| <a href="#">Yunusov Dilshod Raxmatovich</a>  |    |
| Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash<br>ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....     | 32 |
| <a href="#">Aliqulova Habiba Bahranovna</a>  |    |
| Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri .....  | 36 |
| <a href="#">Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi</a>  |    |
| Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli .....  | 41 |
| <a href="#">Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna</a>   |    |
| Диагностика креативности студентов педагогических вузов в<br>процессе изучения специальных дисциплин.....                                    | 44 |
| <a href="#">Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна</a>  |    |
| STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ<br>kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....       | 49 |
| <a href="#">Tashibekova Munajat Xoshimovna</a>   |    |
| Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning<br>pedagogik-didaktik shart-sharoitlari..... | 53 |
| <a href="#">Asqarova Ma'mura Sadriddinovna</a>   |    |
| O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati .....   | 59 |
| <a href="#">Atajanova Xurjon Pirnazar qizi</a>   |    |
| O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend .....   | 64 |
| <a href="#">Murtozayeva Nigora Murtoza qizi</a>  |    |
| Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....  | 67 |
| <a href="#">Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna</a>   |    |
| Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari .....                                 | 69 |
| <a href="#">N. A. Musayeva</a>   |    |
| Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari .....                                     | 76 |
| <a href="#">Odiljonova Kamola Abduvosit qizi</a>   |    |
| Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching .....                                       | 81 |
| <a href="#">Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li</a>   |    |
| Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari .....   | 84 |
| <a href="#">Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</a>   |    |
| Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati .....   | 87 |
| <a href="#">Raxmanova Dilnoza Farmanovna</a>   |    |
| Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari .....  | 90 |
| <a href="#">Shamshaddinova Saodat Saparbayevna</a>   |    |
| Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning<br>didaktik modeli va metodik ta'minoti .....   | 93 |
| <a href="#">Shamuratov Asqar Abdullayevich</a>   |    |



|  |     |
|--|-----|
| The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....   | 98  |
| <i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>  |     |
| Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....   | 106 |
| <i>Sobitov Otabek</i>  |     |
| O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....   | 111 |
| <i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>  |     |
| Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismaniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati..... | 114 |
| <i>Xasanova Sarvinoz To'liqinjon qizi</i>  |     |
| Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi .....                       | 118 |
| <i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>   |     |
| Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения .....   | 123 |
| <i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>   |     |



# O'SPIRINLIK YOSHIDA NAMOYON BO'LADIGAN AGRESSIV XULQNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATI

Atajanova Xurjon Pirnazar qizi  
Urganch RANCH texnologiya Universiteti  
Psixologiya mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada o'spirinlik yoshida kuzatiladigan agressiv xulq-atvorning psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. O'spirinlarning agressivligi ularning emotsional holati, ijtimoiy muhit va shaxsiy tajribalariga bog'liq bo'lib, bu jarayonni tushunish psixologlar va pedagoglar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda agressiyaning turlari, sabablari va oldini olish usullari yoritiladi. Shuningdek, o'spirinlik davridagi psixologik o'zgarishlar va ular bilan bog'liq xavf-xatarlar ham muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** o'spirinlik yoshi, agressiv xulq, psixologik xususiyatlar, emotsional holat, ijtimoiy muhit, shaxsiy tajriba, psixologik o'zgarishlar, pedagogika, agressiyaning turlari, agressiyaning sabablari, oldini olish usullari, xavf-xatarlar, oila tarbiyasi, maktab muhiti.

**Abstract:** The article analyzes the psychological characteristics of aggressive behavior in adolescence. Adolescents' aggressiveness depends on their emotional state, social environment, and personal experiences, making it crucial for psychologists and educators to understand this process. The study examines types of aggression, its causes, and prevention methods. Psychological changes during adolescence and related risks are also discussed.

**Key words:** adolescence, aggressive behavior, psychological characteristics, emotional state, social environment, personal experience, psychological changes, pedagogy, types of aggression, causes of aggression, prevention methods, risks, family upbringing, school environment.

**Аннотация:** В статье анализируются психологические особенности агрессивного поведения в подростковом возрасте. Агрессивность подростков зависит от их эмоционального состояния, социального окружения и личного опыта, и понимание этого процесса имеет важное значение для психологов и педагогов. В исследовании рассматриваются виды агрессии, её причины и методы профилактики. Также обсуждаются психологические изменения в подростковом возрасте и связанные с ними риски.

**Ключевые слова:** подростковый возраст, агрессивное поведение, психологические особенности, эмоциональное состояние, социальная среда, личный опыт, психологические изменения, педагогика, виды агрессии, причины агрессии, методы профилактики, риски, семейное воспитание, школьная среда.

## KIRISH

O'spirinlik yoshi inson hayotining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda shaxsiy identifikatsiya, mustaqillik va ijtimoiy moslashuv jarayonlari kuchayadi. Shu bilan birga, bu bosqichda emotsional beqarorlik, o'zini namoyon qilish istagi va tashqi ta'sirlarga sezgirlik oshadi. Ushbu omillar natijasida ayrim o'spirinlarda agressiv xulq-atvor shakllanishi kuzatiladi.

Agressivlik turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin, jumladan, jismoniy, og'zaki va psixologik tajovuz ko'rinishida ifodalanadi. Bunday xatti-harakatlarning sabablari biologik omillar, tarbiya jarayoni, oilaviy muhit, do'stlar ta'siri va ijtimoiy omillar bilan bog'liq. O'spirinlik yoshidagi agressiyaning oldini olish va uni boshqarish psixologlar, pedagoglar va ota-onalar uchun dolzarb masalalardan biridir. Maqolada o'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulq-atvorning psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, agressiyaning asosiy sabab va turlari, uning ijtimoiy va psixologik oqibatlarini hamda oldini olish usullari yoritiladi. Ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida samarali psixologik yondashuv va pedagogik usullar taklif etiladi.

O'spirinlik davrida agressiv xulq-atvorning shakllanishi shaxsning individual xususiyatlari va atrof-muhit omillari bilan bevosita bog'liq. Bu yoshda o'smirlar o'z his-tuyg'ularini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishlari, ijtimoiy muhitdagi ziddiyatli holatlarga nisbatan keskin munosabat bildirishlari mumkin. Natijada, agressivlik

tashqi ta'sirga nisbatan himoya mexanizmi sifatida yoki shaxsiy ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida namoyon bo'lishi ehtimoli ortadi. Agressiv xulq-atvor ijtimoiy va psixologik jihatdan turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Jismoniy agressiya urishish, nizo chiqarish, atrofdagilarga zarar yetkazish orqali ifodalansa, og'zaki agressiya haqorat qilish, kamsitish, tahdid qilish shaklida kuzatiladi. Psixologik agressiya esa manipulyatsiya, mensimaslik va ijtimoiy izolyatsiya orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu holatlarning har biri o'spirinning shaxsiy rivojlanishi va kelajakdagi ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu sababli, o'spirinlarning agressiv xulq-atvorini o'z vaqtida aniqlash va unga to'g'ri yondashish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada agressiv xulqning rivojlanish omillari, uni yuzaga keltiruvchi psixologik sabablari va ijtimoiy muhitning roli batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, o'spirinlar bilan ishlashda samarali psixologik metodlar va profilaktika choralarini tavsiya etiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulq-atvorning psixologik xususiyatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar turli yondashuvlarga asoslanadi. G'arb va mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida agressiyaning biologik, ijtimoiy va psixologik omillari keng tahlil qilingan. Tadqiqotlarga ko'ra, o'spirinlik davridagi agressivlik genetik moyillik, neyrofiziologik o'zgarishlar, oilaviy muhit va tarbiya usullari bilan bog'liq. Ba'zi tadqiqotchilar agressiyani shaxsning emotsional holati va stressga javob reaksiyasi sifatida ko'rib chiqadilar.<sup>1</sup> Ularning fikricha, o'spirinlik davrida yuzaga keladigan hissiy beqarorlik va o'zini namoyon qilish ehtiyoji agressiv xatti-harakatlar shaklida ifodalanishi mumkin. Boshqa olimlar esa ijtimoiy ta'sir omilini asosiy omil deb hisoblaydi. Ularning fikriga ko'ra, maktab muhitidagi nizolar, do'stlar va internet orqali olingan axborot agressiv xatti-harakatlarning shakllanishiga ta'sir qiladi. Psixologlar va pedagoglar tomonidan agressiyaning oldini olish va uni kamaytirish bo'yicha samarali metodlar ishlab chiqilgan. Masalan, kognitiv-behavioral terapiya, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish dasturlari va oilaviy psixokorreksiya usullari samarali deb topilgan. Shuningdek, maktablarda psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish va o'qituvchilarning psixologik bilimlarini oshirish ham o'spirinlar o'rtasida agressiyani kamaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlarda esa milliy mentalitet va tarbiya usullarining agressiv xulq shakllanishiga ta'siri o'rganilgan. Mahalliy olimlarning izlanishlarida oila muhiti va an'anaviy qadriyatlarining o'spirinlar xulqiga ta'siri alohida ta'kidlangan. Shu bilan birga, o'qituvchilarning va ota-onalarning psixologik savodxonligi oshirilishi o'spirinlarning agressiv xulq-atvorini kamaytirishda muhim omil ekanligi qayd etilgan.

O'zbek va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'spirinlik davridagi agressiv xulqning kelib chiqish sabablari va oldini olish usullari bo'yicha qator ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Psixologik yondashuvga ko'ra, agressivlik shaxsning emotsional holati va psixologik o'ziga xosliklari bilan bog'liq bo'lib, bunda shaxsning tajovuzga moyilligi, o'z-o'zini boshqarish qobiliyati va stressga chidamligi muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy-psixologik yondashuv esa agressiyaning shakllanishida atrof-muhit, tarbiya va ijtimoiy ta'sirlar yetakchi o'rin tutishini ta'kidlaydi. Ba'zi tadqiqotchilar shaxs rivojlanishining psixoanalitik jihatlariga asoslanib, o'spirinlik davridagi agressiyani ichki konfliktlar, komplekslar va bosim ostida yuzaga keladigan himoya mexanizmi sifatida tushuntiradilar.

Kognitiv psixologiya vakillari esa agressiv xulqni noto'g'ri fikrlash va muammolarni hal qilishda samarali strategiyalarning yetishmovchiligi bilan bog'lashadi. Xulq-atvor psixologiyasi tarafdorlari esa agressiyani o'rganilgan xatti-harakat deb hisoblab, uni tashqi rag'batlantirish va mukofotlash mexanizmi bilan tushuntiradilar. Pedagogik tadqiqotlar agressiyaning oldini olishda ta'lim tizimining ahamiyatini ta'kidlaydi.

O'qituvchilar va psixologlar tomonidan olib borilgan izlanishlarda maktab muhitining psixologik farovonligi, dars jarayonidagi stress omillari va o'quvchilarning emotsional holati o'rganilgan.

Tadqiqotlarga ko'ra, ijobiy tarbiya muhitini yaratish, o'quvchilarning psixologik ehtiyojlarini inobatga olish va konfliktlarni konstruktiv hal qilish usullarini o'rgatish orqali agressiv xatti-harakatlarni kamaytirish mumkin. Zamonaviy ilmiy manbalarda ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining agressiv xulq shakllanishidagi roli ham o'rganilgan.<sup>2</sup>

Ba'zi tadqiqotlar o'spirinlarning internetdagi zo'ravonlik mazmunidagi kontentga ta'sirchanligi, kibertahqir va onlayn konfliktlar real hayotdagi agressiv xatti-harakatlarga sabab bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu sababli, raqamli psixologiya yo'nalishidagi tadqiqotlar yoshlar o'rtasida internet madaniyatini shakllantirish va onlayn zo'ravonlikning oldini olish muhimligini ta'kidlaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'spirinlik davridagi agressiv xulq turli omillarga bog'liq bo'lib, uni tahlil qilish va oldini olish bo'yicha kompleks yondashuv zarur. Biologik, psixologik, ijtimoiy va pedagogik yondashuvlarni uyg'unlashtirish orqali o'spirinlarning agressivligini samarali boshqarish mumkin. Ushbu masalaga oid ilmiy tadqiqotlar o'spirinlarning ijtimoiy moslashuvi, hissiy barqarorligi va ijobiy xulq shakllanishiga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

1 Alekseeva. - [Elektronnyy resurs]. - URL: <http://psy.su/feed/2510/> (data obrasheniya 05.05.2019).

2 Bolalarga o'smirlarga maslaxat berishda yosh psixologik yondashuv/Ed. G.V.Burmenskoj E. I.Zaxarova O.A.Karabova va boshqalar., „Akademiya, 2012.-112s 5.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuga doir ilmiy izlanishlarni olib borishda qo'llanilgan usullar, yondashuvlar va tahlil usullari ko'rib chiqiladi. Ish jarayonida empirik, nazariy va eksperimental usullar uyg'unlashtirildi. Ma'lumotlarni to'plash uchun kuzatish, so'rov, test sinovlari va psixologik diagnostika metodlaridan foydalanildi. Kuzatish usuli orqali o'spirinlarning xulq-atvori tabiiy muhitda tahlil qilindi. So'rov va intervyu metodlari yordamida o'quvchilar, ota-onalar va pedagoglarning fikrlari o'rganildi. Test sinovlari orqali agressivlik darajasi va unga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirildi. Eksperimental metod yordamida turli sharoitlarda agressiv xulqni keltirib chiqaruvchi sabablar va ularning oldini olishga qaratilgan psixologik ta'sir usullari sinovdan o'tkazildi. Nazariy tahlil davomida mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar ko'rib chiqildi.

Turli psixologik yondashuvlar, agressivlikning nazariy modellari va uni kamaytirishga qaratilgan metodikalar tahlil qilindi. Statistika va ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida matematik va kompyuter dasturlaridan foydalanildi. Olingan natijalarni ishonchligini ta'minlash uchun tanlangan metodlar ilmiy asoslangan holda qo'llanildi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida ishonchlik va ob'ektivlik tamoyillariga amal qilindi. Ish jarayonida eksperimental natijalar psixologik mezonlar asosida baholanib, aniq xulosalar chiqarildi. Ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida sifat va miqdoriy yondashuvlar uyg'unlashtirildi.

Miqdoriy tahlil uchun statistik usullar qo'llanilib, o'spirinlarning agressivlik darajasini baholash, o'zaro bog'liqliklarni aniqlash va umumiy tendensiyalarni aniqlashga e'tibor qaratildi. Sifat tahlili esa respondentlarning fikrlari, kuzatuv natijalari va individual xulq-atvor xususiyatlarini batafsil o'rganishga asoslangan bo'ldi.

Eksperimental metodda agressiv xulq-atvorni kamaytirishga qaratilgan psixologik ta'sir usullari sinovdan o'tkazildi. Bu jarayonda nazorat va tajriba guruhlarini tashkil etilib, ular bilan individual va guruh mashg'ulotlar olib borildi. Mashg'ulotlar davomida o'zini tuta bilish, konfliktlarni hal qilish va stressni boshqarish bo'yicha turli texnikalar qo'llanildi.

Mashg'ulotlardan so'ng ishtirokchilarning xulq-atvori qayta baholanib, dastlabki natijalar bilan taqqoslandi.

Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida statistik tahlil dasturlari va metodlari qo'llanildi. Chi-kvadrat, t-test va korrelyatsion tahlil kabi usullar orqali agressivlik darajasi va unga ta'sir qiluvchi omillar orasidagi bog'liqliklar aniqlashtirildi. Shu bilan birga, psixologik diagnostika natijalari vizual grafik va diagrammalar yordamida tavsiflandi.

Ish jarayonida ilmiy xolislikka rioya qilinib, respondentlarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiylik ta'minlandi. So'rov va eksperimentlarda ishtirokchilarning roziligi olinib, ularga tadqiqot maqsadi va natijalari haqida tushuntirish berildi. Ish usulbarining ilmiy asoslanganligi va natijalarining ishonchligini ta'minlash uchun tahlillarning obyektivligi va qayta tekshirish imkoniyati nazorat qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'spirinlarning agressiv xulq-atvori tahlil qilinganda, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlab berildi. Olingan natijalarga ko'ra, biologik omillar, oilaviy tarbiya, maktab muhitidagi psixologik omillar va ijtimoiy ta'sirlar agressivlikning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan tarbiya usullari va oiladagi ziddiyatli munosabatlar o'spirinning tajovuzkorlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Maktab muhitida do'stlar o'rtasidagi ziddiyatlar, psixologik bosim va o'qituvchilarning noto'g'ri munosabati agressiv xatti-harakatlarning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkinligi kuzatildi. So'rov natijalariga ko'ra, tajovuzkorlik darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilarning aksariyati o'zlarini tengdoshlar orasida yetarlicha qabul qilingan deb hisoblamaydilar yoki ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Eksperimental natijalar shuni ko'rsatdiki, o'spirinlar bilan olib borilgan psixologik mashg'ulotlar, jumladan, konfliktni boshqarish va stressni kamaytirish bo'yicha treninglar ularning agressiv xulq-atvorini pasaytirishda samarali natijalar beradi. Mashg'ulotlardan so'ng tajriba guruhidagi ishtirokchilarning tajovuzkorlik darajasi sezilarli darajada kamaygani kuzatildi, ayniqsa, ularning muammolarni hal qilish strategiyalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.


Statistik tahlil natijalari agressivlik va stress darajasi o'rtasida mustahkam bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Shuningdek, o'zini nazorat qila olmagan, emotsional barqarorlik darajasi past bo'lgan o'spirinlarda agressivlik ko'proq namoyon bo'lishi aniqlandi. Olingan natijalar shuni tasdiqladiki, o'spirinlik yoshida agressiv xatti-harakatlarning oldini olish va kamaytirish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, bunda psixologik treninglar, pedagogik yondashuvlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlarining o'rni katta ahamiyatga ega.

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, o'spirinlarning 68%ida agressivlik darajasi o'rtacha, 20%ida yuqori va 12%ida past darajada ekanligi aniqlandi. So'rovnoma ishtirokchilarining 47%i agressivlikka ko'proq ijtimoiy muhit sabab bo'lishini ta'kidlagan bo'lsa, 35%i oilaviy omillarni asosiy sabab sifatida ko'rsatdi. Eksperiment davomida tajriba guruhidagi o'spirinlarning 72%ida agressivlik darajasi pasayganligi, 18%ida esa sezilarli o'zgarish kuzatilmaganligi qayd etildi.

Kuzatuv natijalariga ko'ra, oilaviy muhitida doimiy nizolar mavjud bo'lgan o'spirinlarning 82%ida tajovuzkorlik belgilari kuzatilgan. Statistik tahlil shuni ko'rsatdiki, stress darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilarning 65%ida agressiv xatti-harakatlar qayd etilgan, past stress darajasiga ega bo'lganlarda esa bu ko'rsatkich 28%ni tashkil etdi. O'quvchilar o'rtasidagi ziddiyatlar asosan 14-16 yosh oralig'ida keskinlashishi aniqlanib, bu yosh guruhidagi ishtirokchilarning 74%ida konfliktga moyillik yuqoriligi kuzatildi.

Treninglardan so'ng tajriba guruhidagi ishtirokchilarning 80%ida muammolarni hal qilish ko'nikmalari yaxshilangani, 67%ida esa o'zini boshqarish darajasi oshgani qayd etildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, agressivlikning oldini olish va uni kamaytirish uchun psixologik mashg'ulotlar samarali usullardan biri bo'lib, ijtimoiy va oilaviy muhitni yaxshilash bilan birgalikda qo'llanganda yanada yuqori natijalar berishi mumkin.

O'spirinlarning agressivlik darajasi



Diagrammada o'spirinlarning agressivlik darajasi aks ettirilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 68% o'quvchilarda agressivlik o'rtacha, 20%ida yuqori va 12%ida past darajada ekanligi aniqlandi. Bu ko'rsatkichlar o'spirinlarning xulq-atvoriga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish va samarali profilaktika choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

- O'spirinlik davridagi agressiv xulq ko'plab biologik, psixologik va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oilaviy tarbiya, maktab muhitidagi stress va shaxsiy emotsional barqarorlik bu xatti-harakatlarga bevosita ta'sir qiladi.
- Psixologik mashg'ulotlar va treninglar agressivlikni kamaytirishda samarali usul bo'lib, tajriba guruhidagi o'quvchilarning ko'pchiligida tajovuzkorlik darajasi pasayganligi kuzatildi. Konfliktlarni hal qilish va o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish orqali ijtimoiy moslashuv yaxshilandi.
- Olingan natijalarga ko'ra, agressivlikni oldini olish va kamaytirish uchun kompleks yondashuv zarur. Ota-onalar, o'qituvchilar va psixologlarning hamkorligi, ijobiy tarbiya usullarini qo'llash va o'spirinlarning emotsional holatini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu xulosalar asosida o'spirinlarning agressiv xatti-harakatlarini kamaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish, pedagogik va psixologik yondashuvlarni takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

#### Takliflar

- Maktablarda o'quvchilarning psixologik holatini muntazam monitoring qilish va agressivlikni kamaytirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish. Bu orqali o'spirinlarning emotsional holatini yaxshilash va ijtimoiy moslashuv darajasini oshirish mumkin.
- Ota-onalar va pedagoglar uchun o'spirinlik yoshidagi bolalar bilan samarali muloqot qilish, ularning agressiviyasini boshqarish bo'yicha maxsus treninglar va seminarlarni tashkil etish. Bu ularning pedagogik va psixologik ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.



Bu takliflar o'spirinlarning psixologik farovonligini ta'minlash, ularning ijtimoiy moslashuvini oshirish va agressiv xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan kompleks yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi deya bemalol ayta olamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alekseeva. - [Elektronnyy resurs]. - URL: <http://psy.su/feed/2510/> (data obrazeniya 05.05.2019).
2. Bolalarga o'smirlarga maslahat berishda yosh psixologik yondashuv/Ed. G.V.Burmenskoy E. I.Zaxarova O.A.Karabova va boshqalar., ,Akademiya, 2012.-112s 5.
3. Ismoilovna, A. Z. (2022). Prerequisites for identifying gifted children and shaping their abilities. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(6), 308- 311.
4. Karakulovich, J. A., & Ismoilovna, A. Z. (2021). Psychological Study Of Emotions And Emotions In World Psychology. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(10), 419-421.
5. Nishonova Z.T., Kamilova N.G', Abdullayeva D.U., Xolinazarova M.X. "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" -Toshkent: 2017, 241-b
6. N.Ismoilova, D.Abdullayeva "Ijtimoiy psixologiya" -TOSHKENT: 2013, 130-b
7. Кернберг О.Ф. Агрессия при расстройствах личности и перверсиях. М, 1998134 с
8. Ш.Мустафаева. "Усмир психологияси: биз билмаган жихдтлар". Фаргона-2015, 7-б.
9. Ziyocom.uz
10. Referat.uz

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.